


2018 yilning noyabr oyida O`zbekiston Respublikasi iste`mol sektoridagi inflyatsiya darajasi

Joriy yilning noyabr oyida mamlakatning iste`mol bozoridagi tovarlar va xizmatlar narxi o`rtacha 2,3 %ga ko`tarildi.

Umumiy hisobda 11 oy davomida iste`mol sektorida inflyatsiya darajasi 12,0 %ni tashkil etdi.


2018 yilning noyabr oyida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha iste`mol narxlari indeksi (INI), (o`tgan oyga nisbatan, %)



Ma`lumot uchun: 2017 yilning noyabr oyida respublika iste`mol sektoridagi inflyatsiya darajasi 2,0 %ni tashkil etgan. Oy davomida umumiy narxlar darajasining o`shishiga oziq-ovqat mahsulotlari 1,5 %, noziq-ovqat mahsulotlar 3,4 % va xizmatlar 0,5 % ga ta`sir etgan.

Oylik iste`mol narxlari o`zgarishi tahlillari shuni ko`rsatmoqdaki, iqtisodiyotga inflyatsion bosimlarning oshishi joriy yilning sentyabr oyidan e`tiboran kuzatila boshlangan. Sentyabrda o`rtacha oylik iste`mol narxlari 1,8 %, oktyabrda 1,3 % va noyabr oyida 2,3 %, so`nggi uch oylikda esa narxlarning o`rtacha ko`tarilishi 5,4 %ni tashkil etgan.


2018 yilning yanvar-noyabr oylarida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha iste`mol narxlari indeksi (INI) dinamikasi, %




Tovarlar oy davomidagi umumiy narxlar darajasining o`shishiga 2,0 %, 2017 yilning oxiriga nisbatan esa 11,3 %ga ta`sir etgan.

Ma`lumot uchun: 2017 yilning noyabrda tovarlar oy davomida o`rtacha 2,3 %, umumiy hisobda esa 2017 yilning yanvar-noyabr oylarida 12,4 %ga ko`tarilgan.

**2018 yilning yanvar-noyabr oylarida O`zbekiston Respublikasi
bo`yicha iste`mol narxlari indeksi dinamikasi, %**
a) o`tgan oyga nisbatan



b) o`tgan yilning dekabr oyiga nisbatan



Narxlarning oy davomida eng yuqori sur`atlarda oshgani yanvar oyida qayd etilgan bo`lib, unda tovarlar o`rtacha 3,0 %ga qimmatlashgan. Joriy yilning may va iyun oylarida esa tovarlarning


o`rtacha narxlari darajasi aksincha, pasayganligi (oy davomida 0,6 % va 0,5 %) bevosita meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining mavsumiy arzonlashishi bilan bog`liq.

2017 yilning dekabr oyiga nisbatan tovarlarning iste`mol narxlari o`zgarishi tom ma`noda umumiy INI o`zgarishi tendentsiyasini takrorlaydi: qiymatning maksimal darajaga yetishishi noyabr oyida (11,3 %), minimali esa yanvarda (3,0 %) kuzatilgan.

Joriy yilning noyabrda xizmatlar narxlarining oy davomidagi o`shish sur`ati shu oydagi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari ko`rsatkichlari darajasidan ortiqroq bo`ldi. Xizmatlar 3,3 %, oziq-ovqat mahsulotlari 2,7 % va nooziq-ovqat mahsulotlari 1,2 %ga qimmatlashdi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha asosiy guruhlarining iste`mol narxlari indeksi dinamikasi

(o`tgan oyga nisbatan, %)




Yil boshidan mazkur guruhlar kesimidagi narxlarning o`zgarishi tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, xizmatlar 11 oy davomida 14,3 %, oziq-ovqat mahsulotlari 11,4 % va nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari 11,1 %ga qimmatlashdi.

**2018 yil yanvar-noyabr oylarida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha
asosiy guruhlarning iste`mol narxlari indeksi dinamikasi
(2017 yilning dekabr oyiga nisbatan, %)**



Oy davomidagi narxlar o`zgarishining strukturasi tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, narxlarning ko`tarilishi borasida yetakchilik xizmatlar sohasiga taalluqli bo`lsada (3,3 %), har bir yirik guruhning salmoq vaznlarini hisobga olgan holda ta`sir darajasi va strukturasi bo`yicha ustunlik oziq-ovqat mahsulotlari guruhiga tegishlidir (ta`sir 1,2 foiz darajasida (keyingi o`rinlarda f.d.)).


**2018 yilning yanvar-noyabr oylarida asosiy turdagi tovarlar guruhi
narxlarining o`zgarishi dinamikasi va ularning umumiy INI
o`shidagi ta`siri**
(o`tgan oyga nisbatan, %)



2018 yilning 11 oyi davomidagi yig`ma INI tahliliga ko`ra, umumiy narxlar darajasining oshishiga ta`sir darajasi bo`yicha ham yetakchilik oziq-ovqat mahsulotlariga (4,9 f.d.), keyingi o`rinlarda esa nooziq-ovqat mahsulotlari (3,9 f.d.) va xizmatlarga (3,1 f.d.) tegishlidir.

2017 yilning oxiriga nisbatan har bir guruhning yig`ma INI o`shishiga qo`shgan ulushi quyidagi diagramma shaklida yaqqol ko`rsatib o`tilgan:

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida asosiy turdagi tovarlar guruhi narxlari o`zgarishi dinamikasi va ularning umumiy INI o`shidagi ta`siri (o`tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, %)




Salmoq ko`rsatkichlari bo`yicha tovarlar narxlarining ko`tarilishi umumiy INIning oy davomidagi o`shishiga ta`sir darajasi bo`yicha 69,3 %, xizmatlar ulushi esa 30,7 %ni tashkil etgan.


Umumiy hisobda, joriy yilning 11 oyi mobaynida tovarlar narxlarining o`shishi INI ko`rsatkichlariga nisbatan umumiy tendentsiyasi noyabr oyidagi holatga o`xshash: jami ko`rsatkichning oshishida tovarlar narxlari ulushi 73,3 %ni, xizmatlar ulushi esa 26,7 %ni tashkil etganligi quyidagi diagramma shaklida namoyish etilgan:

2018 yilning noyabr oyida asosiy turdagi tovarlar guruhi narxlari o`zgarishining umumiy INIga ta`siri ulushi, %

a) o`tgan oyga nisbatan



b) o`tgan yilning dekabr oyiga nisbatan




Oziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi

yuqorida ta`kidlanganidek, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oy davomida o`rtacha 2,7 %ga oshgani umumiy INI darajasining 1,2 f.d.ga ko`tarilishiga olib keldi. 2017 yilning dekabr oyiga nisbatan narxlarning 11,4 %ga qimmatlashganligi esa umumiy ko`rsatkichning 4,9 f.d.da o`shishiga sabab bo`ldi.

Yillik tahlillar natijasiga ko`ra (2018 yilning noyabr oyi 2017 yilning dekabr oyiga nisbatan), ushbu guruhdagi tovarlar narxi o`rtacha 19,5 %ga qimmatlashgan.

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha oziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi dinamikasi, %



Oziq-ovqat mahsulotlari narxlari yanvar (oy davomida 3,5 %), sentyabr (3,3 %) hamda noyabr oylari davomida (2,6 %) sezilarli darajada qimmatlashdi.

Alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlari guruhlarining iste`mol narxlari indeksi quyidagi ko`rinishda havola etilgan:


2018 yilning noyabr oyida guruhlar bo`yicha oziq-ovqat
mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi

(o`tgan oyga nisbatan, %)



Noyabr oyida oziq-ovqat mahsulotlaridan asosiy guruhlar narxlarining ko`tarilishida, asosan iste`mol sektoridagi oziq-ovqat tovarlaridan meva-sabzavot mahsulotlari (narxlar 6,5 %ga qimmatlashganligi umumiy INI ko`rsatkichini 0,5 f.d.ga oshirdi), non mahsulotlari (mos ravishda 2,8 % va 0,2 f.d.), go`sht mahsulotlari (1,5 % va 0,2 f.d.), tuxum (9,2 % va 0,1 f.d) narxlari qimmatlashdi. Aynan sanab o`tilgan guruh mahsulotlari narxlarining qimmatlashishi oy davomidagi yig`ma INI ko`rsatkichining oshishiga 1,0 f.d.da ta`sir etdi.

2018 yilning noyabr oyida guruhlar bo`yicha oziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi
(o`tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, %)



O`tgan yilning oxiriga nisbatan kartoshka va tuxum mahsulotlaridan tashqari qolgan barcha turdagi oziq-ovqat guruhi mahsulotlari narxlari ko`tarilgan (kartoshka va tuxum mos ravishda 26,4 % va 0,4 %ga arzonlashgan).

O`zbekiston Respublikasi bo`yicha alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi, %

Mahsulot nomi	2018 yil noyabr:	
	2018 yil oktyabrga nisbatan	2017 yil dekabrga nisbatan
Bug`doy uni	102,1	112,1
Makaron, vermishel va boshqalar	101,7	108,0
Oliy navli bug`doy unidan non	102,2	154,3
Guruch	107,1	157,2
Mol go`shti (suyuyaksizdan tashqari)	101,6	126,0
Suyaksiz mol go`shti	100,7	114,9
Qo`y go`shti	100,8	123,5
Parranda go`shti (sonlardan tashqari)	104,2	101,5
Tovuq boldiri, son qismlari	102,3	102,0
Sut	102,4	115,7
Tuxum	109,2	99,4
Sariyog`	100,6	110,6
Paxta yog`i	106,0	108,5

Non mahsulotlari narxlarining qimmatlashishi asosan joriy yilning sentyabr oyida kuzatilgan bo`lib (oy davomida o`rtacha 10,9 %), bu o`z navbatida un va non mahsulotlari narxlarining erkinlashtirilishi bilan tavsiflanadi. Oktyabr va noyabr oylari davomida narxlarning o`shishi tendentsiyasi saqlanib qolgan bo`lsada, lekin ushbu ko`rsatkich sezilarli darajada ko`zga tashlanmagan. Noyabr oyi davomida guruch 7,1 %, mosh 3,1 %, oliy navli bug`doy uni va noni 2,2 %, birinchi navli bug`doy uni 2,1 %, pishirilgan non mahsulotlari 1,7 %, makaron mahsulotlari narxlari 1,2 %ga qimmatlashdi. Shu bilan bir qatorda no`xat 3,1 %, grechka 0,4 %ga arzonlashdi.

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha guruchning iste`mol narxlari indeksi dinamikasi, %



Ma`lumot uchun: guruch narxlari noyabr oyida Toshkent shahrida (oy davomida 15,2 %), Buxoro va Namangan viloyatlarida (mos ravishda 11,8 % va 11,0 %) sezilarli darajada qimmatlashib, narxlarning birmuncha barqaror sur`atlarda oshganligi esa Jizzax (oy davomida 3,3 %), Andijon (1,9 %) va Farg`ona (1,0 %) viloyatlarida kuzatilgan.

O`tgan 11 oy mobaynida guruchning eng yuqori darajada qimmatlashgani Xorazm viloyatida (1,8 marta), birmuncha past sur`atlarda oshganligi esa Qashqadaryo viloyatida (41,8 %) qayd etilgan.

Bug`doy uni narxlarining oy davomidagi sezilarli darajada qimmatlashishi joriy yilning sentyabr oyida kuzatilgan (8,4 %). Oktyabr va noyabr oylarida ushbu ko`rsatkich mos ravishda oyiga o`rtacha 0,5 % va 2,1 %ga ko`tarilgan.

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha bug`doy uni mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi dinamikasi, %



Ma`lumot uchun: joriy yilning noyabr oyida hududlar kesimida un mahsuloti narxleri o`zgarishi taqqoslanganda, Toshkent shahrida (oy davomida 7,9 %) va Andijon viloyatida (5,6 %) yuqori sur`atlarda qimmatlashgan. Narxlarning minimal o`sishi esa Xorazm viloyatida (oy davomida 1,0 %) kuzatilgan.


Umumiy hisobda 11 oy davomida, un mahsulotlari narxleri Farg`ona (19,4 %), Toshkent (16,8 %) va Andijon (15,8 %) viloyatlarida sezilarli darajada qimmatlashgan. Narxlarning minimal darajada ko`tarilganligi Jizzax viloyati (4,8 %) hamda Qoraqalpog`iston Respublikasida (6,4 %) ro`yxatga olingan.

Joriy yilning noyabr oyi mobaynida go`sht va baliq mahsulotlaridan parranda go`shti (sonlardan tashqari) (4,2 %), tirik va muzlatilgan baliq (3,8 %), tovuq boldiri va son qismlari (2,3 %), mol go`shti (suyaksizdan tashqari) (1,6 %), sosiska, sardelka va go`shtli konservalar (1,5 %), yarim tayyor go`sht mahsulotlari va ichak-chavoq, kalla-pocha (1,3 %) va qo`y go`shti narxlari (0,8 %) birmuncha sezilarli darajada oshgan.

Yil boshidan tirik va muzlatilgan baliq 35,1 %, mol go`shti (suyaksizdan tashqari) 26,0 %, qo`y go`shti 23,5 %, suyaksiz mol go`shti 14,9 %, tovuq boldiri va son qismlari 2,0 %, boshqa parranda go`shti narxlari o`rtacha 1,5 %ga qimmatlashdi.

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha asosiy turdagi go`sht mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi dinamikasi

(o`tgan oyga nisbatan, %)



Joriy yilning 11 oyida go`sht mahsulotlari narxlarining eng yuqori darajada ko`tarilishi iyun oyida ro`yxatga olingan bo`lib, oy davomida narxlar o`rtacha 4,3 %ga o`sdi.

Ma`lumot uchun: noyabr oyida mol go`shti (suyaksizdan tashqari) Andijon va Samarqand viloyatlarida sezilarli darajada qimmatlashgan (oy davomida 3,3 % va 3,2 %). Narxlarning minimal sur`atlarda ko`tarilganligi esa Farg`ona viloyatida qayd etilgan (oy davomida 1,5 %). Yil boshidan suyakli mol go`shti narxlari oshishi maksimal darajada Sirdaryo viloyatida (39,1 %), minimal darajada esa Qashqadaryo viloyatida (19,2 %) qayd etilgan.

Noyabr oyida qo`y go`shti narxlari yuqori darajada Andijon viloyatida (oy davomida 3,0 %), past sur`atlarda oshganligi esa Sirdaryo viloyatida (0,3 %) kuzatilgan. O`tgan yilning oxiriga nisbatan qo`y go`shti narxlari boshqa hududlarga qaraganda Sirdaryo viloyatida eng yuqori darajada qimmatlashib (34,4 %), past sur`atda narxlarning oshishi esa Andijon viloyatida (14,2 %) qayd etilgan.

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha tuxum va parranda go`shti mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi dinamikasi (o`tgan oyga nisbatan, %)




Parrandachilik mahsulotlari narxlari avgust oyidan boshlab barqaror o`sinh tendentsiyasiga ega bo`ldi. Jumladan, so`nggi to`rt oy davomida tuxum narxlari 31,9 %, parranda go`shti (sonlardan tashqari) 16,2 %, tovuq boldiri va son qismlari 8,0 %ga o`sdi.



Joriy yilning noyabrida meva va sabzavot mahsulotlari narxlari oy davomida o`rtacha 6,5 %ga qimmatlashdi. Yil boshidan o`tgan davr mobaynida meva-sabzavot mahsulotlari narxlari o`zgarishi tahliliga ko`ra, narxlar

ko`tarilishining eng yuqori cho`qqisi joriy yilning aprel oyida qayd etilgan (2017 yilning dekabr oyiga nisbatan 19,5 %). eng past narx darajasi esa avgust oyida kuzatilgan (2017 yilning oxiriga nisbatan 20,5 %ga pasaygan). May oyidan avgustgacha bo`lgan vaqtda (bozorlarning yangi hosil bilan to`yinishi davri) meva-sabzavot mahsulotlari narxi 33,5 %ga pasayib, so`nggi uch oy davomida esa narxlar o`rtacha 19,8 %ga oshgan.

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha meva-sabzavot mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi dinamikasi, %




Joriy yilning noyabr oyida meva va sabzavot mahsulotlari narxlari orasida eng yuqori o`shish - bodringda (2,3 baravar), eng katta pasayish esa sabzi narxida (11,5 %) qayd etilgan.

2018 yilning noyabr oyida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha alohida turdagi meva-sabzavot mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi (o`shish (+) yoki pasayish (-) oy davomida, %)

Narxlarning o`shishi




Narxlarning pasayishi



2018 yilning yanvar-noyabr oylarida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha karam va pomidorning iste`mol narxlari indeksi

(o`tgan oyga nisbatan, %)




Ma`lumot uchun: oy davomida boshqa hududlarga nisbatan pomidor narxlarini Namangan (2 baravar), Andijon, Buxoro va Samarqand viloyatlarida (1,7 baravar) qimmatlashganligi qayd etildi. Narxlarning minimal darajada oshganligi esa Toshkent viloyatida kuzatilgan (25,0 %).

Oy davomida karamning narxi hududlar kesimida - Andijon (9,9 %) va Qashqadaryo (9,1 %) viloyatlarida sezilarli darajada oshgan. Aksincha esa, narxlar oy davomida Toshkent shahri va Samarqand viloyatida o`rtacha 8,0 %, Jizzax viloyatida 7,4 % hamda Sirdaryo viloyatida 1,6 %ga arzonlashgan.

Umumiy hisobda joriy yilning yanvar-noyabr oylarida pomidor narxi respublika bo`yicha o`rtacha 34,3 %ga arzonlashgan. Narxlarning sezilarli darajada pasayishi esa Qoraqalpog`iston Respublikasida (62,6 %) qayd etilgan. Bu davrda karam narxlarini aksincha, sezilarli darajada qimmatlashib (respublika bo`yicha o`rtacha 2,5 baravar), hududlar bo`yicha Namangan viloyatida eng yuqori narx o`sishi darajasi qayd etilgan (3,1 baravar).

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha piyoz va sabzining iste`mol narxlari indeksi (o`tgan oyga nisbatan, %)




Ma`lumot uchun: noyabr oyi davomida respublikaning barcha hududlari bo`yicha piyoz narxining o`zgarishi dinamikasi bir maromda kechmadi. Mamlakatning 7 ta hududida narxlar oshganligi kuzatilgan bo`lsa, 4 tasida esa aksincha pasaydi va qolgan 3 ta hududda narxlar o`tgan oy narxlari darajasida saqlanib qoldi. Narxlarning maksimal darajada oshishi Andijon hamda Surxondaryo viloyatlarida kuzatilgan bo`lsa (5,1 %dan), narxlarning sezilarli darajada arzonlashishi Toshkent shahrida qayd etilgan (2,2 %). 2017 yilning dekabr oyiga nisbatan piyoz narxi mamlakatning barcha hududlarida arzonlashgan. Mamlakat bo`yicha o`rta hisobda narxlar 31,1 %ga pasaygan.

Oy davomida respublikaning deyarli barcha hududlarida sabzi narxlari arzonlashganligi kuzatilgan (Qashqadaryo va Toshkent viloyatida narxlar darajasi o`tgan oyga nisbatan o`zgarishsiz qolgan). Narxlarning yaqqol arzonlashganligi Xorazm viloyatida ro`yxatga olingan (23,6 %). 2017 yilning oxiriga nisbatan taqqoslaydigan bo`lsak, respublika bo`yicha joriy yilning noyabr oyidagi narxlar darajasi o`tgan davr mobaynida o`rtacha 1,9 baravarga oshganligini ko`rishimiz mumkin. Narxlarning

maksimal darajada qimmatlashishi Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida (2,8 va 2,7 baravar), minimal narxlar oshishi esa Namangan viloyatida (58,7 %) kuzatilgan.


2018 yilning yanvar-noyabr oylarida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha bodring va kartoshkaning iste`mol narxlari indeksi (o`tgan oyga nisbatan, %)



Ma`lumot uchun: noyabr oyi davomida bodring narxlari mamlakatning barcha hududlarida qimmatlashdi. Narxlarning maksimal darajada Sirdaryo viloyatida (oy davomida 2,7 baravar), minimal darajada esa Jizzax hamda Surxondaryo viloyatlarida (1,9 baravar) qimmatlashgan. Biroq, joriy yilning noyabr oyidagi narxlar 2017 yilning dekabridagi narxlar darajasidan o`rtacha 31,6 %ga arzonroqdir.

Oy davomida kartoshka narxlari qolgan hududlarga nisbatan Samarqand (17,4 %) va Jizzax (13,0 %) viloyatlarida sezilarli qimmatlashgan. Mamlakatning 3 ta hududida esa aksincha narxlar arzonlashgan: Andijonda 1,3 %, Farg`onada 2,5 % va Xorazm viloyatida 1,5 %. Bodring narxlari kabi kartoshka narxlari ham o`tgan yilning oxiridagi narxlar darajasidan pastroq bo`ldi (o`rtacha 26,5 %).

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha olma va uzumning iste`mol narxlari indeksi (o`tgan oyga nisbatan, %)



Ma`lumot uchun: noyabr oyidagi olma narxlarining o`zgarishi diapazoni ham bir maromda bo`lmadi. Oy davomida olma narxlari Namangan viloyatida 4,7 %ga oshib, Andijon viloyatida esa aksincha 4,0 %ga arzonlashdi. yanvar-noyabr oylarida narxlar darajasi o`rtacha 0,6 %ga pasaygan.


Noyabr oyi davomida uzum narxlari o`zgarishi hududlar kesimida keng diapazonga ega bo`ldi. Mamlakatning 9 ta hududida narxlar o`rtacha 1,0 %dan (Xorazm viloyatida) 7,5 %gacha (Namangan viloyatida) qimmatlashdi. Qolgan hududlarda esa narxlarning 2,3 %dan (Andijon viloyatida) 4,9 %gacha (Farg`ona viloyatida) pasayganligi qayd etildi. 2017 yilning dekabr oyiga nisbatan mamlakatning barcha hududlarida uzum narxlari arzonlashdi. Respublika bo`yicha narxlarning pasayishi o`rtacha 39,8 %ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot narxlari o`zgarishini inobatga olmaganda, oziq-ovqat mahsulotlarining INI noyabr oyida 101,9 %, yanvar-noyabr oylari uchun esa 114,7 %ni tashkil etgan.

Nooziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi

Joriy yilning noyabr oyida nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining 1,2 %ga qimmatlashishi umumiy INIning oy davomida 0,4 f.d.da oshishiga olib keldi. O`tgan 11 oy davomidagi nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari umumiy hisobda narxlar darajasining 11,1 %ga o`shishiga olib kelganligi, joriy davrdagi umumiy INI ko`rsatkichining 3,9 f.d.da ortishiga ta`sir ko`rsatdi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha nooziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi dinamikasi, %




Joriy yilning noyabr oyi davomida nooziq-ovqat mahsulotlaridan iste`mol sektoridagi umumiy inflyatsiya darajasiga ta`siri bo`yicha yetakchilik avtomobillar uchun yoqilg`i mahsulotlariga taalluqlidir.

Ma`lumot uchun: O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 1 noyabrdagi "Yoqilg`i-energetika resurslarining narx va tariflarini bosqichma-bosqich o`zgartirish to`g`risida"gi №897-son qaroriga asosan, avtomobillar uchun yoqilg`ining yangi oshgan narxlari joriy qilindi. 2018 yilning 16 noyabridan 1 litr Ai-80 markali benzin narxi 4000 so`m, Ai-91 – 4500 so`m, dizel yoqilg`isi 4800 so`m va EKO dizel yoqilg`isi 4900 so`mni tashkil etmoqda.

Moliya vazirligining rasmiy saytidan olingan ma`lumotlarga asosan, AYoQSh orqali sotiladigan gaz narxlari tahliliga ko`ra joriy yilning 16 noyabridan e`tiboran, ular tomonidan sotilayotgan tabiiy gaz narxi 300-400 so`mga qimmatlashdi (1700-1800 so`mdan 2000-2200 so`mgacha), ya`ni, dastlabki narxlarning o`sishi o`rtacha 17-22 %ni tashkil etmoqda.

Adolatsiz raqobatga yo`l qo`ymaslik maqsadida Davlat raqobat qo`mitasi, O`zdavneftgaz inspeksiyasi va davlat soliq organlari tomonidan o`rnatilgan narxlarni qat`iy monitoring qilish natijasida AGTKS (avtomobillarga gaz to`ldirish kompressor stantsiya)larining aksariyati sotilayotgan gaz narxini pasaytirdilar.



Bir oy davomida nooziq-ovqat mahsulotlaridan iste`mol narxlari indeksi o`shiga bo`yicha biroz past sur`atlarda kiyim-kechak (1,1 %), oyoq kiyim (1,3 %) va dori-darmonlar (1,4 %) narxlari oshganligi ta`sir ko`rsatdi. Narxlarning o`shida asosan milliy valyuta qiymatining AQSh dollariga nisbatan zaiflashuvi bilan bog`liq. Mazkur omil umumiy INIning oy davomidagi o`shiga 0,2 f.d.da ta`sir etdi.

Ma`lumot uchun: O`zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma`lumotlariga asosan, joriy yilning 15 oktyabridan 15 noyabriga qadar so`mga nisbatan AQSh dollari qiymati 1,1 %ga (1 AQSh dollari 8181,08 so`mdan 8271,27 so`mga) qimmatlashdi.

Joriy yilning 11 oyi davomida nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari indeksiga ta`sir darajasi bo`yicha yetakchilik avvalgi oydagi kabi qurilish materiallari, maishiy yoqilg`i (ko`mir), kiyim-kechak, oyoq kiyim hamda avtomobillar uchun yoqilg`i tovarlari hissasiga to`g`ri keladi.


Nooziq-ovqat mahsulotlarining asosiy guruhlari bo`yicha narxlar o`zgarishi quyidagi ko`rinishda namoyish etilgan.

Asosiy turdagi nooziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi, %

	2018 yil oktyabrga nisbatan	2017 yil dekabrga nisbatan	2017 yil noyabrga nisbatan
Kiyim-kechak	101,1 %	109,5 %	112,9 %
Oyoq kiyim	101,3 %	109,0 %	111,4 %
Gazlama va eshilgan iplar	101,0 %	108,4 %	109,6 %
Qurilish materiallari	99,8 %	118,6 %	120,7 %
Shaxsiy gigiena mahsulotlari	100,6 %	106,1 %	108,9 %
Tamaki mahsulotlari	100,0 %	122,1 %	123,0 %
Ko`mir	100,0 %	174,3 %	174,3 %
Shaxsiy transport	100,1 %	106,8 %	107,2 %
Avtomobillar uchun voqila`i	108,1 %	123,4 %	123,3 %
Maishiy tuqimachilik mah.	101,1 %	109,2 %	111,7 %

Qurilish materiallari oy davomida o`rtacha 0,3 %ga arzonlashganligi, inflyatsion bosimlarni biroz yumshatib, umumiy inflyatsiya darajasini 0,01 f.d.da pasayishiga sabab bo`ldi. Bu davrda sement 1,7 %, shpatlyovka 0,8 %, deraza oynasi narxlari o`rtacha 0,6 %ga arzonlashdi. Umumiy hisobda joriy yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish materiallari narxlari o`rtacha 18,6 %ga qimmatlashganligi shu davrdagi nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari indeksining oshishida ta`sir darajasi bo`yicha yetakchi o`rinni egallagan.


2018 yil noyabr oyida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha alohida turdagi qurilish materiallarining iste`mol narxlari indeksi, %



Xizmatlar iste`mol narxlari indeksi

Joriy yilning noyabr oyida aholi uchun xizmatlar tariflari narxlari o`rtacha 3,3 %ga oshgani oy davomidagi umumiy INIning ko`tarilishiga 0,7 f.d.da ta`sir etdi. yanvar-noyabr oylari mobaynida ushbu sohada tariflar 14,3 %ga o`sganligi o`tgan davrdagi umumiy ko`rsatkichning 3,1 f.d.da ortishiga sabab bo`ldi.

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha xizmatlarning iste`mol narxlari indeksi dinamikasi, %



Joriy yilning noyabr oyida aholiga pullik xizmat ko`rsatish sohasida narxlar o`shishining asosiy omili – uy-joy kommunal to`lovlari narxlarining oshganligidir. Ushbu sohada aholi uchun tariflarning 8,7 %ga oshganligi iste`mol sektoridagi umumiy inflyatsiya darajasining oshishiga 0,5 f.d.da ta`sir etdi.

2018 yilning noyabr oyida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha
uy-joy kommunal xizmatlarning iste`mol narxlari indeksi
(o`tgan oyga nisbatan, %)



O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 1 noyabrdagi "Yoqilg`i-energetika resurslarining narx va tariflarini bosqichma-bosqich o`zgartirish to`g`risida"gi №897-son qaroriga asosan, aholi uchun elektroenergiya va gaz uchun to`lovlarning oshgan narxlari joriy qilindi.

Aholi uchun suyultirilgan gaz 18,8 %, tarmoq gaz 10,4 %, elektroenergiya narxlari 9,4 %ga qimmatlashdi.

Ma`lumot uchun: joriy yilning 16 noyabridan aholi uchun quyidagi tariflar belgilandi:

- tarmoq gaz (1 m³) - 320 so`m,
- suyultirilgan gaz (1 kg) - 950 so`m,
- elektroenergiya (1 kvts) - 250 so`m.

Mahalliy hokimlik organlari tomonidan narxlari nazorat qilinuvchi boshqa turdagi uy-joy kommunal xizmatlaridan issiq suv, issiqlik ta`minoti, sovuq suv va kanalizatsiya uchun to`lov narxlari mamlakatning bir qator hududlarida oshganligi kuzatildi.

Issiqlik ta`minoti va issiq suv uchun to`lovlar Qoraqalpog`iston Respublikasi, Jizzax, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida 10,0 %, Qashqadaryo viloyatida issiqlik ta`minoti 10,1 % va Andijon viloyatida esa 9,7 %ga oshirildi. Mamlakatning qolgan hududlarida esa narxlar darajasi o`tgan oyga nisbatan o`zgarishsiz qoldi. Umumiy hisobda respublika bo`yicha issiqlik ta`minoti uchun to`lov narxlari oy davomida o`rtacha 3,9 %, issiq suv uchun to`lovlar esa 2,4 %ga qimmatlashgan.

Sovuq suv va kanalizatsiya tariflari 3 ta hududda oshirildi: Sirdaryo (20,0 %), Toshkent viloyati (21,9 %) va Toshkent shahrida (11,1 %).

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha uy-joy kommunal xizmatlarning iste`mol narxlari indeksi

(o`tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, %)

Xizmat nomi	Narx indeksi
Uy-joy kommunal xizmatlari	123,9
XUJMSH to`lovlari	127,2
Sovuq suv va kanalizatsiya	130,0
Issiqlik ta`minoti	115,3
Elektroenergiya	122,4

Xizmat nomi	Narx indeksi
Tarmoq gaz	121,5
Suyultirilgan gaz	194,4
Issiqlik ta`minoti	118,2
Maishiy chiqindi uchun to`lov	115,1

Kuzatilayotgan boshqa turdagi xizmatlardan avtomobil transportida yo`lovchi tashish xizmati narxlari tarifi respublika bo`yicha o`rtacha 2,4 %, haydovchilikka o`qitish kurslari 4,0 %, tibbiy xizmatlar 1,9 % va maishiy turdagi xizmatlar 0,9 %ga qimmatlashdi.

Umumiy hisobda joriy yilning yanvar-noyabr oylari davomida xizmatlarning iste`mol narxlari indeksiga kommunal sohasida narxlari tartibga solinuvchi xizmatlar tarifining oshirilishi (respublika bo`yicha o`rtacha 23,9 %), yo`lovchi tashish transportidagi yo`l haqi (12,7 %), dam olish xizmatlari (18,9 %), til o`rgatish va haydovchilikka o`qitish kurslarini hisobga olgan holda ta`lim xizmatlari (16,7 %), sport xizmatlari (13,6 %), aloqa xizmatlari (11,3 %), shuningdek, maishiy turdagi xizmatlarning (10,2 %) qimmatlashishi sezilarli darajada ta`sir ko`rsatdi.

Narxlar statistikasi boshqarmasi

71-230-80-36

71-230-81-74